



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	



Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	



ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Teshaboyeva Feruza Raximovna

QDPI Maxsus pedagogika kafedrası v.b. professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0009-0009-0536-9732

Annotatsiya: Mazkur maqolada kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq rivojlanishiga xos qonuniyatlar, ichki nutqning shakllanish mexanizmlari hamda nutq, tafakkur va muloqot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritilgan. Shuningdek, kar bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishda pedagogik va audiologik tasniflarning ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida axborot muhitining o'rni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanishga ta'siri ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari kar bolalar nutqini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlarga asoslangan ta'limni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: kar bolalar, zaif eshituvchi bolalar, nutq rivojlanishi, surdopedagogika, pedagogik-psixologik xususiyatlar, ichki nutq, axborot muhiti, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, korreksion ta'lim, inkluziv ta'lim.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the pedagogical and psychological characteristics of the speech development process in deaf and hard-of-hearing children. The study examines specific patterns of speech development in children with hearing impairments, the mechanisms of inner speech formation, as well as the interrelationship between speech, thinking, and communication. In addition, the importance of pedagogical and audiological classifications in organizing corrective and pedagogical work with deaf children is substantiated. The article highlights the role of the information environment in preparing future surdopedagogues for professional activity, the possibilities of using information and communication technologies, and their impact on speech development. The research findings substantiate the need to improve speech development education for deaf children based on individual and differentiated approaches.

Key words: deaf children, hard-of-hearing children, speech development, surdopedagogy, pedagogical and psychological characteristics, inner speech, information environment, information and communication technologies, corrective education, inclusive education.

Аннотация: В статье проводится научный анализ педагогико-психологических особенностей процесса развития речи у глухих и слабослышащих детей. В исследовании раскрываются специфические закономерности речевого развития детей с нарушением слуха, механизмы формирования внутренней речи, а также взаимосвязь речи, мышления и коммуникации. Обосновывается значение педагогических и аудиологических классификаций при организации коррекционно-педагогической работы с глухими детьми. В статье также показана роль информационной среды в процессе подготовки будущих сурдopedagogов к профессиональной деятельности, возможности использования информационно-коммуникационных технологий и их влияние на развитие речи. Результаты исследования подтверждают необходимость совершенствования обучения, направленного на развитие речи глухих детей, на основе индивидуального и дифференцированного подходов.

Ключевые слова: глухие дети, слабослышащие дети, развитие речи, сурдopedagogика, педагогико-психологические особенности, внутренняя речь, информационная среда, информационно-коммуникационные технологии, коррекционное обучение, инклюзивное образование.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston ta'lim siyosatida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash masalasi zamonaviy pedagogika va maxsus ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki nutq shaxsning nafaqat muloqot vositasi, balki uning tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy kamolotini belgilovchi yetakchi omil sanaladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqning shakllanishi eshituvchi bolalar bilan solishtirganda murakkab va o'ziga xos yo'nalishda kechadi. Eshitish analizatoridagi nuqson nutqiy tajribaning cheklanishiga olib keladi, bu esa lug'at boyligining kamligi, grammatik tuzilmani anglashdagi qiyinchiliklar hamda muloqot faoliyatining sustlashuvi bilan namoyon bo'ladi. Shu sababli nutqni rivojlantirish jarayoni faqat lingvistik vazifa sifatida emas, balki murakkab pedagogik-psixologik jarayon sifatida ko'rib chiqilishi zarur ^[5, 58].

Mazkur sharoitda bo'lajak surdopedagoglarni kar bolalar nutqini rivojlantirishga tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy surdopedagog nafaqat maxsus metodikalarni bilishi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishi, ilmiy manbalarni tahlil qilishi hamda individual ta'lim traektoriyalarini loyihalashi lozim. Shu bois, surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida axborot muhitini yaratish va undan maqsadli foydalanish zarurati yuzaga keladi ^[4, 39].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining nazariy asoslari surdopedagogika va maxsus psixologiya doirasida keng tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda R. M. Boskis tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik tasnif alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni shakllantirish jarayonini differensial tashkil etish, ta'lim mazmunini moslashtirish hamda individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Boskis tadqiqotlarida nutqning rivojlanishi nafaqat eshitish darajasi, balki pedagogik ta'sir va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

Audiologik yondashuv doirasida L. V. Neyman tomonidan ishlab chiqilgan tasnif eshitish qoldig'ining saqlanganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, u korreksion-pedagogik ishlarni rejalashtirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tasnif eshitish apparatlari va texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlarini belgilash, shuningdek, nutqni rivojlantirish jarayonida eshitish qoldig'ini maksimal darajada faollashtirishga yordam beradi. Neyman yondashuvi nutq rivojlanishini fiziologik va psixologik omillar uyg'unligida talqin qilishi bilan ajralib turadi.

O'zbek olimlarining tadqiqotlarida esa eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning metodik va ijtimoiy-pedagogik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Z. Mamarajabova zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqib, unda bosqichma-bosqich ta'lim va nutqiy mashg'ulotlarning tizimliliigi asoslab berilgan. F. U. Kodirova va D. B. Yakubjanova tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda defektolog mutaxassislarni tayyorlashda insonparvarlik yondashuvining ahamiyati ochib beriladi. F. R. Teshaboyeva ilmiy ishlarida esa bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida maxsus metodik fanlarni samarali o'qitish texnologiyalarining nutqiy rivojlanishga ta'siri yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida surdopedagogika, umumiy va maxsus psixologiya hamda psixolingvistika sohalariga oid fundamental va zamonaviy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Nazariy tahlil orqali kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlanib, ularning o'ziga xos qonuniyatlari umumlashtirildi.

Shuningdek, R.M. Boskis tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik tasnif hamda L.V. Neyman tomonidan taklif etilgan audiologik tasniflar qiyosiy tahlil qilinib, ularning nutqni rivojlantirish jarayonini tashkil etishdagi metodik imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida nutq, tafakkur va muloqot jarayonlarining axborot muhiti bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Modellashtirish usuli orqali bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashda qo'llaniladigan adaptiv axborot muhiti tarkibiy komponentlari asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishi bir qator psixologik va pedagogik omillarga bevosita bog'liqdir. Avvalo, ushbu bolalarda ichki nutqning shakllanishi eshituvchi bolalarnikidan farqli ravishda vizual, kinestetik va taktil tajribalar asosida kechadi. Ichki nutq tafakkur va tashqi nutq o'rtasidagi asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lib, uning rivojlanganligi bolaning mantiqiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda yozma nutqni egallashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik va audiologik tasniflar kar bolalar bilan olib boriladigan nutqiy ishlarning mazmuni va yo'nalishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. R. M. Boskis tasnifi nutqning shakllanish darajasiga asoslangan holda differensial ta'limni tashkil etish imkonini bersa [1, 38], L. V. Neyman tasnifi eshitish qoldig'ining saqlanganlik darajasini aniqlash orqali korreksion ishlarni rejalashtirishga xizmat qiladi ^[3, 61]. Ushbu tasniflar asosida individual va moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot davomida axborot muhitining bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlashdagi roli alohida o'rganildi. Elektron ta'lim resurslari, multimedia materiallar, ta'lim platformalari va ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydala-



nish talabalarning axborot kompetensiyasini, bibliografik savodxonligini hamda kasbiy mustaqilligini oshirishi aniqlandi. Axborot muhitida tashkil etilgan ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq rivojlanishining dinamikasi eshitish qoldig'i darajasi, erta pedagogik aralashuv, oilaviy nutqiy muhit hamda korreksion ta'limning tizimliliigi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, ichki nutqning vizual-motor asosda shakllanishi keyingi og'zaki va yozma nutq sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ichki nutqi rivojlangan bolalarda mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash hamda mustaqil bayon qilish ko'nikmalari nisbatan yuqori darajada shakllanganligi kuzatildi.

Tasnifiy yondashuvlarning amaliy qo'llanishi natijasida differensial ta'lim samaradorligining oshishi aniqlanib, nutqiy mashg'ulotlar mazmunini individual rivojlanish traektoriyasi asosida loyihalash imkoniyati yuzaga keldi. Pedagogik tasnif nutqning shakllanish darajasiga yo'naltirilgan metodik strategiyalarni belgilashga xizmat qilgan bo'lsa, audiologik tasnif eshitish qoldig'ini maksimal darajada faollashtirishga yo'naltirilgan korreksion yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi [2, 44].

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim muhiti talabalarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini kuchaytirgani kuzatildi. Multimedia resurslar, vizual modellar va interaktiv platformalardan foydalanish nutqni ko'rish–eshitish–kinestetik integratsiya asosida rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Bu esa nutqiy kompetensiyaning kompleks shakllanishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish kutilgan samarani bermaydi. Nutqni rivojlantirish jarayoni erta tashxis, oilaviy muhit va ta'lim muassasasining uzviy hamkorligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalariga tayangan holda tashkil etilgandagina samarali bo'ladi.

Axborot muhitiga asoslangan yondashuv surdopedagogning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Chunki zamonaviy surdopedagog bir vaqtning o'zida pedagogik, psixologik, lingvistik va texnologik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Axborot muhiti ushbu bilimlarni tezkor izlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari milliy va xorijiy ilmiy izlanishlarda ilgari surilgan g'oyalarni to'ldiradi hamda ularning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi [6, 41].

Tadqiqot natijalari nutq rivojlanishini faqat lingvistik jarayon sifatida emas, balki ko'p omilli pedagogik-psixologik tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi. Nutq, tafakkur va muloqotning o'zaro bog'liqligi ichki nutqning rivojlanish darajasi orqali namoyon bo'ladi. Demak, kar bolalarda nutqni rivojlantirish jarayoni vizual va taktil tayanchlarga asoslangan holda tashkil etilishi metodik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy axborot muhiti surdopedagoglarni tayyorlashda faqat yordamchi vosita emas, balki kasbiy kompetensiyani shakllantiruvchi integrativ platforma vazifasini bajaradi. Axborot muhiti orqali talaba ilmiy manbalarni mustaqil tahlil qilish, metodik modellarni ishlab chiqish hamda individual ta'lim strategiyalarini loyihalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa bo'lajak surdopedagoglarning refleksiv va innovatsion tafakkurini rivojlantiradi.

Natijalar milliy va xorijiy tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, individual va differensial yondashuvning ustuvorligi yana bir bor tasdiqlandi. Nutqni rivojlantirish jarayonida erta tashxis, oilaviy hamkorlik, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda tizimli korreksion yondashuv bir butun mexanizm sifatida ishlagandagina barqaror natijalarga erishish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab va ko'p bosqichli pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, uning samaradorligi bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir. Axborot muhitini tizimli va adaptiv tarzda tashkil etish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini kompleks shakllantirishga, nutqiy rivojlanishni faollashtirishga hamda inklyuziv ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv kar bolalarning muloqot imkoniyatlarini kengaytirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Боскис Р. М. Педагогическая классификация детей с нарушениями слуха. – Москва, 1976.
2. Мамаражובה З. Заиф эшитувчи о'қувчилар нутқини ривожлантириш методикаси. – Toshkent, 2016.
3. Нейман Л. В. Аудиологическая классификация детей с нарушениями слуха. – Москва, 1961.
4. Кодинова Ф. У. Имконияти cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
5. Yakubjanova D. B. Defektolog mutaxassislarni tayyorlashda insonparvarlik yondashuvi. – Toshkent, 2020.
6. Teshaboyeva F. R. Oliy ta'limda "ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari. – Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.